

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KURALOV YULDASH ABDULLAYEVICH

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING
DASTURLASHTIRISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Kuralov Yuldash Abdullayevich

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini
rivojlantirish metodikasi.....3

Куралов Юлдаш Абдуллаевич

Методика развития компетентности по программированию у будущих
учителей по информатике23

Kuralov Yuldash Abdullayevich

Methodology for developing the programming competence of future it
teachers45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KURALOV YULDASH ABDULLAYEVICH

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING
DASTURLASHTIRISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped1964 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web sahifasida hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudova Dilfuza Mellyevna
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Ergashov Muxammatrasul
texnika fanlari doktori, professor

Yakubboyeva Nafisa Saxobiddinovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Gulliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "26" 06 kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 013 raqam bilan ro'yxatga olingun). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil " 10 " 06 kuni tarqatildi.
(2023 yil "10" 06 daqi 105 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.X.Eshchanov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi
f-m.f.d. professor

GO.Ernazarova
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi
v.b., p.f.d. professor

R.A.Eshchanov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot va raqamli texnologiyalaridan ta'lim, ishlab chiqarish sohalariga jadal foydalanilishi kadrlar tayyorlash tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimini isloh qilishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri mutaxassislar tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni to'liq qaror toptirishdan iboratdir. Talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda psixologik-pedagogik risklarga moslashuvchan interaktiv didaktik vositalarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilgan individual va differensialashgan o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish, kompyuter ta'limi asosida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash muhim ustuvorlik kasb etadi. AQSH, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlar tajribasi ta'lim oluvchilarda dasturlashtirish savodxonligini uzluksiz rivojlantirib borish o'ta muhimligini ko'rsatadi.

Dunyoda bo'lajak informatika o'qituvchilarining amaliy-texnologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish, "Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik tizimini ishlab chiqish, yangi avlod o'quv-uslubiy majmualar vositasida ta'lim oluvchilarning axborot-kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik asoslarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak informatika o'qituvchilarida dasturiy kompetentlikni rivojlantirishning motivatsion-qadriyatli, tashkiliy-mazmuniy, kognitiv-operatsion va shaxsiy-refleksiv komponentlarini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy o'sishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, aralash ta'lim sharoitida talabalarning dasturlashtirishga doir amaliy ko'nikma va malakalarini intensiv shakllantirish metodikasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarining integratsiyasini ta'minlash, pedagog kadrlarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, o'qitish jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish va jozibadorligini oshirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. "Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriyalarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi "E-MINBAR" platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish"¹ ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu esa, bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlash kompetensiyasini rivojlantirishning metodik tamoyillari va qoidalarini ishlab chiqish; pedagogika oliy ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.

muassasasi talabalarini dasturlashtirishga doir malakalarini shakllantirishning innovatsion-metodik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Mamlakatimizda bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishning nazariy-amaliy masalalari U.Begimqulov, F.Zokirova, M.Lutfullayev; ta‘limning metodik tizimini loyihalash yuzasidan A.Abduqodirov, N.Taylaqov, D.Maxmudovalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Shu bilan bir qatorda G.Muxammedov, U.Xodjamqulov, G.Sharipova Sh.Jo‘rayev va boshqalar klasterli ta‘lim muhitini tashkil etish orqali talabalarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan I.Zimnya, D.Ivanov, I.Frumin, V.Bolotovlar pedagogik jarayonni modellashtirish va loyihalash masalalarini o‘rganishgan; kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari esa, A.Belkin, A.Bodalev, V.Vvedenskiy, N.Kuzmina, A.Markova, J.Ravenlar; pedagogik-psixologik tadqiqotlarda matematik statistika usullari J.Glass, EV Sidorenko, B.E.Starichenkolar; dasturlashni o‘qitish asoslari A.Ershov, V.Jujjalov, I.Rojina, D.Slinkin, M.Lapchiklar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan S.B.Cooper, D.Lurie, B.Moskal, Mitchell Resnick, Randy Pausch, Wanda Dann va boshqa olimlar informatikadan zamonaviy loyihalar ishlab chiqish, dasturlash tillari fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish va talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Shu bilan bir qatorda, pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida algoritmlashtirish va dasturlashni o‘qitish masalalari xorij olimlaridan M.V.Shvetskiyb, D.A.Slinkin, A.L.Smetannikovlar tomonidan o‘rganilgan.

Yuqoridagi ilmiy ishlar tahlili raqamli texnologiyalarning keng foydalanishga alohida ehtiyoj sezilayotgan zamonaviy sharoitda bo‘lajak informatika

o'qituvchilarining dasturlash kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion-didaktik tizimini takomillashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirishning interaktiv-metodik shart-sharoitlarini ishlab chiqishga alohida zaruriyat borligini ko'rsatmoqda. Ana shu sababli ta'lim klasterida bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borish zarur degan xulosaga kelindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Ta'lim mazmuni va sifatini oshirish, raqobatbardosh, yuqori bilim va ko'nikmalarga ega oliy ma'lumotli pedagoglar tayyorlashda samarali bo'lgan pedagogik ta'lim innovatsion klasterlarini joriy qilish" ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi: ta'lim klasterida bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishni ta'minlovchi nazariy va metodologik yondashuvlarni aniqlashtirish;

bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning metodik funksiyalari va tamoyillarini aniqlashtirish;

klasterli yondashuv asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik modelini ishlab chiqish;

bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning monitoring tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: sifatida bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Chirchiq va Jizzax davlat pedagogika universitetlari hamda Navoiy davlat pedagogika institutining 301 nafar talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqot predmeti: bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qildi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-metodik manbalarni qiyosiy tahlil etish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, anketa, suhbat, kuzatish, test, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlari kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashga yo'naltirilgan tizimli, sinergetik, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli yondashuvlarning kompetentli ta'lim modeli bilan metodik integrallashuv darajasi produktivligi operativ va didaktogenlik ko'rsatkichlari dinamikasini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning muvofiqlashtiruvchi, sinergik, korporativ, prognostik, birlashtiruvchi, qayta tashkil etish kabi funksiyalari qulaylik, moslashuvchanlik, madaniy muvofiqlik, hamkorlik tamoyillarining klasterli yondashuv bilan qayta

aloqasi intensiv barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ta'limiy xokatoni pedagogik loyihalash optimalligini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik modeli "Dasturlash tillari" modulini o'qitishning metodik imkoniyatlarini pre-postrekvizit kurslar bilan vertikal va gorizontal yo'nalishlarda kengaytirib borish mantig'iga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning monitoring tizimi shaxsiy, kognitiv, kommunikativ, regulyativ universal o'quv faoliyatini baholashning refleksiyaga asoslangan QR-kod texnologiyasidan differensial foydalanishning metodik imkoniyatlarini kengaytirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlanganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

talabalarning dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Dasturlash tillari" nomli uslubiy ko'rsatma ishlab chiqilgan;

"Python dasturlash tili" nomli mobil ilova ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

talabalarning dasturlashtirishga doir mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo'llanilgan yondashuv, usullar, unga oid foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami, Oliy attestatsiyasi komissiyasi e'tirof etgan jurnallarda chop etilgan maqolalar, intellektual mulk agentligidan olingan guvohnomalar, tadqiqot doirasida o'tkazilgan savol-javob, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlari mazmun-mohiyatining yoritib berilganligi, tizimli, sinergetik, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli yondashuvlarning kompetentli ta'lim modeli bilan metodik integrallashuv darajasining ochib berilganligi, bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning muvofiqlashtiruvchi, sinergik, korporativ, prognostik, birlashtiruvchi, qayta tashkil etish kabi funksiyalari, qulaylik, moslashuvchanlik, madaniy muvofiqlik, hamkorlik singari tamoyillarining aniqlashtirilganligi, klasterli yondashuvning dasturlashtirishga doir kompetensiyani rivojlantirishga doir metodik imkoniyatlarining ko'rsatib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik modeli, talabalarning dasturlashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Dasturlash tillari" nomli uslubiy ko'rsatma, "Python dasturlash tili" nomli mobil ilovaning ishlab chiqilganligi, "Dasturlash tillari" modulini o'qitishning metodik imkoniyatlarining

ochib berilganligi, bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning monitoring tizimi, talabalarning dasturlashtirishga doir mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarini kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashga yo'naltirilgan tizimli, sinergetik, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli yondashuvlarning kompetentli ta'lim modeli bilan metodik integrallashuv darajasi produktivligi operativ va didaktogenlik ko'rsatkichlari dinamikasini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-20170929789-sonli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy – ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 27-apreldagi 04/11-2399-son ma'lumotnomasi). Natijada, informatika o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni takomillashtirilgan;

bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning muvofiqlashtiruvchi, sinergetik, korporativ, prognostik, birlashtiruvchi, qayta tashkil etish kabi funksiyalarini qulaylik, moslashuvchanlik, madaniy muvofiqlik, hamkorlik tamoyillarining klasterli yondashuv bilan qayta aloqasi intensiv barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ta'limiy xokatoni pedagogik loyihalash optimalligini ta'minlash asosida aniqlashtirish, bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik modelini "Dasturlash tillari" modulini o'qitishning metodik imkoniyatlarini pre-postrekvizit kurslar bilan vertikal va gorizontal yo'nalishlarda kengaytirib borish mantiqiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston teleradiokanalida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar va biz", "O'zbekiston yoshlari" nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradio kompaniyasining 2023-yil 26-apreldagi 04/36-638-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishda predmetli-didaktik shart-sharoitlarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning monitoring tizimini shaxsiy, kognitiv, kommunikativ, regulyativ universal o'quv faoliyatini baholashning refleksiyaga asoslangan QR-kod texnologiyasidan differensial foydalanishning metodik imkoniyatlarini kengaytirish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 2018-2020-yillarda bajarilgan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion Vazirligi tomonidan olingan PZ-2017093020 raqamli "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirish va prognozlashtirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish va kompleks dasturini yaratish” amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 8-maydagi 04/11-2796-son ma’lumotnomasi). Natijada, dasturlash tillarini o‘qitishning elektron tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ish chop ettirilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan Respublika ilmiy nashrlarida 4 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr qilingan. Intellektual mulk agentligidan 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligiga asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, ob‘yekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ta’lim klasterida bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilariga dasturlash tillari fanini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilariga dasturlash tillari fanini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida o‘qitishning ilmiy nazariy asoslari, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida informatika o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammo sifatida va ta’lim klasterida bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida joriy etish haqida ma’lumotlar berilgan.

Shuningdek, V.Xutorskoy tomonidan ishlab chiqilgan 6 ta tarkibiy qismdan iborat. Kompetensiyalar majmui kreativ dasturlash kompetensiyasini qo‘shish orqali takomillashtirildi. Shu o‘rinda, bo‘lajak informatika o‘qituvchisiga beriladigan, o‘ziga xos tasodifiy nuanslarga ega bo‘lgan ijodiy topshiriqlar va muammoli masalalarni yechishda shaxsning psixik-bilish jarayonlar (diqqat, idrok, tafakkur, xotira)ning tezligini hisobga olish asosida mavjud metodikalar takomillashtirildi.

Kasbiy faoliyatda professional muammolarni mustaqil, ijodiy hal qila oladigan, pedagogik faoliyatning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglab yeta oladigan mutaxassis tayyorlashni maqsad qiladigan, pedagogik ta’lim mazmuni uzluksizligi hamda uzviyligiga asoslangan, uning natijadorligiga javobgar bo‘la oladigan oliy ta’lim sifati alohida ahamiyatga ega. Bunday ta’lim sifatini ta’minlashga qodir mexanizm sifatida “Pedagogik ta’lim klasteri”ni tilga olish o‘rinlidir.

“Pedagogik ta’lim klasteri – muayyan jug’rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida subyektlar, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm” sifatida qaralmoqda.

Sohaga oid manbalarga tayanib aytishimiz mumkinki, “klaster” atamasi (“cluster” ingl. - to‘plam, to‘p, guruh, konsentratsiya, guruhlarga to‘plash, to‘plamlarda o‘shish) axborot texnologiyalari sohasidan kelib chiqqan va ma’lum xususiyatlarga ega, mustaqil birliklar sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan bir turdagi elementlarning birlashishini anglatadi.

Pedagogik ta’lim klasterlari muammosi mahalliy olimlar: G‘.I.Muxamedov, Sh.Q.Mardonov, U.N.Xodjamqulov, Sh.Botirova, X.Sultonov, S.Toshtemirova, N.Koshanova, Q.Mahmudovlar, shuningdek, unga yondosh bo‘lgan masalalar esa R.Eshchanov, G.Bobojonova, D.Bekchanov, M.Quronov, R.A.Mahmudov, R.Sh.Ahliddinov, Yu.N.Abdullayeva, B.S.Abdullayeva, N.X.Raxmonqulova, D.Sh.Yakibova, M.I.Toshpulatova, A.A.Jumanov, R.B.Adizov va D.E.Qarshiyeva kabi olimlar tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan.

Tadqiqotchi U.N.Xodjamqulov “ta’lim klasteri” tushunchasini yoritishda rusiyzabon olimlarning fikrlariga asoslanadi hamda ta’lim klasterining mazmunini oliy o‘quv yurtlari, boshlang‘ich va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan maktablar, iste’molchilar (ish beruvchilar) va mutaxassislarning umumiy maqsad va xususiy manfaatdan iborat hamkorligi sifatida izohlaydi. Klasterning asosiy maqsadi “O‘z tarkibiga kiruvchi ta’limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta’lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta’lim mutaxassislari tayyorlash uchun birlashtirish” ekanligini qayd etadi.

Ta’lim klasteri rus tadqiqotchilari tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, oliy ta’limda klaster va innovatsion ta’limni tadqiq etgan A.B. Smirnovning yozishicha: “professional ta’limda klaster yondashuvni G.V.Muxametzyanova, Y.A.Korchagin, N.B.Pugacheva, A.V.Leontyev; pedagogik loyihalash va faoliyat nazariyasini V.V.Davidov, A.N.Leontyev, V.P.Bespalko, G.I.Ibragimov, B.C.Lednev, M.I.Maxmutov, V.A.Slastenin; uzluksiz ta’lim konsepsiyasini B.S.Gershunskiy, G.V.Muxametzyanova, A.M.Novikov; oliy ta’lim tizimining hududiy rivojlanish aspektlarini A.G.Abrosimov, N.Vasilchenko, V.S.Ivanov, V.P.Kovalevskiy, I.Mauburov, L.Milyayeva, A.Rykun, S.Smirnov va ta’lim xizmatlari bozorini A.Avetisova, I.Berezina, Sh.Valiyeva, A.Zapesoskogo, I.Molchanovoy va boshqalar o‘rganishgan. Ushbu fakt rus tadqiqotchilari tomonidan “ta’lim klasteri”ning nazariy asoslari atroflicha yoritilganligidan dalolat beradi. Ular tomonidan mazkur tushunchaga berilgan ta’riflar bilan o‘zbek tadqiqotchilarining ta’riflari o‘zaro bir-birini to‘ldiradi. Jumladan, O.Y.Gavrilova va b. “Ta’lim klasteri – professional ta’lim muassasalarining o‘zaro aloqadagi birlashmasi bo‘lib, ular sohalariga monand va sheriklik munosabatida korxonalar tarmog‘i bilan o‘zaro bog‘langan, birlashgan bo‘ladi”. Boshqa manbalarda “Ta’lim klasteri – asosan zanjir ichidagi gorizontol bog‘lanishlarga asoslangan fan-texnologiya-biznesning

innovatsion zanjirida ta'lim berish, bir-biriga ta'lim berish va o'z-o'zini tarbiyalash (mustaqil ta'lim olish) vositalari tizimidir”, “Ta'lim klasteri – uzluksiz ta'limning maktabdan ishlab chiqarishgacha bo'lgan yagona tizimi”, deya qayd etiladi.

Yuqorida ta'lim klasteri bo'yicha bildirilgan fikrlardan shunday dastlabki xulosalarga kelish mumkin: MDH davlatlari ta'lim tizimida “klaster” ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash maqsadida barcha ta'lim bosqichi muassasalarining o'zaro birlashuvi va hamkorligi tushuniladi. Bu orqali ta'lim sifati va samaradorligiga erishish maqsad qilinadi.

Amerika, Yevropa va Afrika manbalarining tahliliga asoslanib qayd etishimiz mumkinki, “maktab klasteri (ingliz tilida – school cluster, nemis tilida – Schulcluster)” ushbu mintaqalarda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tushunchani to'g'ri va aniq yoritish, o'z navbatida, quyidagi atamalar ma'nosiga to'xtalishni taqozo etadi.

Yevropada maktab klasteri ma'muriy va ta'lim maqsadlaridagi nomutanosiblikni bartaraf etish uchun geografik jihatdan bir-biriga imkon qadar yaqin joylashgan maktablarning birlashishini anglatadi.

V.Chikoko fikriga ko'ra, “**klasterlar** – bu maktablarda ta'lim sifati va ta'limning dolzarbligini oshirishga qaratilgan, o'zaro geografik yaqin hududda joylashgan maktablarni guruhlashtirish, birlashtirishdir”. T.Tekaligne klasteri ma'muriy va ta'limiy maqsadlar uchun maktablarni birlashtirish deb ta'riflagan.

Maktablarni klasterlashtirish rivojlanayotgan davlatlarda maktablarni qo'llab-quvvatlashning xalqaro me'yoriga aylandi, chunki mamlakatlar o'zlarining ta'lim tizimlariga duch keladigan va ularni bezota qiladigan ko'plab ta'lim muammolarini hal qilish yo'llarini qidirmoqdalar. Yuqorida F.Dittmar, V.Chikoko hamda T.Tekaligne “maktab klasteri”ni geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan maktablar birlashuvi, guruhi deb ta'riflaydi. Ushbu ta'rif to'g'ri bo'lsa-da, boshqa bir manbada maktab klasteri nafaqat o'zaro geografik yaqin joylashgan, balki sifatli ta'lim samaradorligini yaxshilash va ma'muriy maqsadlarda o'qitish va o'rganish resurslarini baham ko'rishga qodir bo'lgan maktablarni birlashtirish ekanligi ta'kidlanadi.

Maktab klasterlarini tashkil etishdan quyidagilar maqsad qilinadi:

- 1) mutaxassislar o'rtasida tajriba va mahoratlarni almashish orqali o'qitish va mustaqil o'rganishni takomillashtirish;
- 2) o'qituvchilarni rivojlantirish, boshqarish va qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim sifati oshirish;
- 3) o'qituvchi va direktorlarning kasbiy kompetentligini oshirish;
- 4) samarali professional tarmoq orqali “izolyatsiya”ni buzish orqali bir nechta kichik maktablarning manbalarini birlashtirish uchun ma'muriyatga yordam berish;
- 5) markazlashmagan qarorlarni qabul qilish, egalik qilish va javobgarlikning yuqori darajalariga erishish.

Maktab klasterlari quidagi sabablarga ko'ra joriy qilinadi:

- 1) maktablarga boshqaruv va qo'llab-quvvatlash darajasining pastligi;
- 2) o'qituvchilar qo'llab-quvvatlashiga mavjud katta ehtiyoj;
- 3) yuqori darajaga erishish qarorlarni qabul qilishda barcha manfaatdor tomonlarning ishtiroki;

4) ko‘pchilik maktablar nisbatan izolyatsiyada faoliyat yuritayotganligi.

Yuqoridagi tahlillar asosida maktab klasteri modelini quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasmga qarang):



1-rasm. Yevropa ta'lim tizimida “maktab klasteri” strukturasi

1-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, Yevropa, aynan, Germaniya ta'lim tizimida geografik o‘zaro yaqin joylashgan bir nechta maktablar shu hududdagi muayyan OTM bilan birgalikda “maktab klasteri”ni tashkil etishi mumkin. Ushbu maktablardan biriga koordinator sifatida tayanch maktab, ya’ni klaster markazi vazifasi yuklanadi, OTM esa tayanch maktab uchun doimiy murojaat manzili - multiplikator vazifasini bajaradi. Misol uchun, ma’lum bir vazifa, topshiriq yoki konsultativ ma’lumot har bir maktabga emas, balki aynan o‘sha tayanch maktabga yetkaziladi, o‘z navbatida, ushbu maktab boshqa a’zo maktablarga yetkazadi. Bu orqali ma’muriy masalalarning ham takomillashuviga erishiladi. Germaniya ta'lim tizimi me’yoriy hujjatlariga ko‘ra, kamida 2 ta, ko‘pi bilan 8 ta maktablar o‘zaro maktab klasterini tuzishi mumkin, undagi o‘quvchilar soni 200 dan ortiq, ammo 2500 tadan kam bo‘lishi shart.

Nemis maktab klasterini tashkil etishdan kutilayotgan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- OTM va maktab o‘rtasidagi barcha jabhalarga doir o‘zaro aloqalarni yaxshilash;

- talabalar uchun maktab amaliyotini yanada professional ravishda tashkil etish va o‘tkazish;

- maktab o‘quvchilarini oliy ta’limga yo‘naltirish va maktabni bitirgandan so‘ng kasb va shunga mos OTM yo‘nalishini tanlashga o‘rgatish maqsadida tashkil etiladigan seminarlarni o‘tkazish uchun OTM resurslaridan yanada samaraliroq foydalanish;

- OTMda mavjud ARM, zamonaviy AKT va professor-o‘qituvchi resurslaridan bevosita foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lish (maktablar uchun);

- ish beruvchi va boshqa tashkilotlar bilan ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish va takomillashtirish, shu orqali bitiruvchilar ixtiyoriga maqsadli va manzilli ish o'rinlarini havola etish.

Ta'lim klasterlari turli mintaqalarning ta'lim tizimiga joriy etilgan bo'lsa-da, uning strukturasi aynan bir xil emas, har bir shakldan kutiladigan maqsad va erishiladigan natijalar o'ziga xosdir. Shunga qaramasdan, ta'lim tizimiga klaster yondashuvni kiritish, maktab klasterlarini tuzish orqali quyidagi umumiy maqsadlar hamda natijalarga erishiladi:

-barcha ta'lim bosqichi (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus (professional) ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim) ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish, bu orqali tezkor o'zaro ma'lumot va tajriba almashish, hamkorlikda loyihalarda ishtirok etish va boshqa imkoniyatlarga ega bo'lish;

-hamkorlikda o'quv dasturlarini ishlab chiqish, bu orqali ish beruvchilarning talablariga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash;

-malakaviy amaliyot samaradorligini oshirish, bunda OTM da o'qitiladigan nazariy bilimlar va amaliyotda talab etiladigan ko'nikmalar mutanosibligiga erishish nuqtai nazaridan ish ko'rish;

-mavjud axborot resurslari, moddiy resurslar (bino-inshoot va maydon) va pedagogik resursdan samarali foydalanish, bunda mavjud "resurslar" barcha klaster ishtirokchilari uchun umumiy "resurs" sifatida qaraladi, uni maqsadli va samarali taqsimlash asosiy mezon sanaladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarini aniqlashda kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashga yo'naltirilgan quyidagi yondashuvlar mavjud, degan xulosaga keldik:

Tizimli yondashuv.

Sinergetik yondashuv.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.

Faoliyatli yondashuv.

Qayd etilgan yondashuvlarni tadqiqotni olib borish jarayonida ishlab chiqilgan kompetentli ta'lim modeli bilan metodik integrallashuv darajasi produktivligini aniqlab olinishi maqsadga muvofiq.

Buni quyidagi ko'rsatkichlar dinamikasini bevosita hisobga olish asosida amalga oshirish zarur hisoblanadi:

operativlik ko'rsatkichi dinamikasi

didaktogenlik ko'rsatkichi dinamikasi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida "Dasturlash tillari" fanini o'qitish jarayonida kompetensiyalarni shakllantirishning klasterli yondashuv tizimini joriy etish"** deb nomlanib, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika fani o'qituvchilariga "Dasturlash tillari" fanini o'rgatishga oid metodikalar xususiyatlari, "Dasturlash tillari" fanini o'rgatish metodikasi mazmuniga qo'yiladigan talablar va kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasida "Dasturlash tillari" fanini o'rgatish metodikasi ochib berilgan.

Tadqiqotimizda mavjud metodikalarni tahlil etish jarayonida bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning quyidagi funksiyalari aniqlandi:

- muvofiqlashtiruvchi funksiyasi;
- sinergik funksiyasi;
- korporativ funksiyasi;
- prognostik funksiyasi;
- birlashtiruvchi funksiyasi;
- qayta tashkil etish funksiyasi.

Ammo mazkur jarayonda faqatgina bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish funksiyalari pedagogik loyihalash optimalligini samarali ta'minlay olmaydi. Shu sababli, bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning quyidagi tamoyillarini ishlab chiqishga muvaffaq bo'lindi:

- qulaylik tamoyili;
- moslashuvchanlik tamoyili;
- madaniy muvofiqlik tamoyili;
- hamkorlik tamoyili.

Qayd etilgan tamoyillar ta'limiy xakatonni klasterli yondashuv bilan qayta aloqasi intensiv barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik loyihalash optimalligini ta'minlash asosida aniqlashtirildi.

Ta'limiy xakaton - bu ishtirokchilar turli muammolarni yechish, yangi konsepsiya va texnologiyalarni ishlab chiqish, tajriba almashish va bir-biridan o'rganish bo'yicha o'ziga xos musobaqa.

Ta'limiy xakatonlar bir necha dars davomida o'tkaziladi, bu jarayonda mutaxassislar jamoaviy ish formatidagi loyihalar ustida ishlaydilar. Tanlov ishtirokchilari IT-mutaxassislari yoki bo'lajak informatika o'qituvchilari, havaskorlar bo'ladilar va ularning vazifalari yangi algoritm va texnologiyalar yaratishdan tortib, ilovalar yaratish va loyihalarni ishlab chiqishgacha juda xilma-xil bo'lishi mumkin.

Xakaton tashkil qilgan o'qituvchi ma'lum vaqt oralig'ini, masalan, 24 dan 72 soatgacha belgilab, so'ngra ishtirokchilarning natijalarini baholab, ulardan eng yaxshisini g'olib sifatida tanlaydi. Tanlovning o'zi turli mavzular va yo'nalishlarga bag'ishlangan bo'lishi mumkin: IT, tibbiyot, siyosat, ommaviy axborot vositalari va boshqalar. Tadbirning formati onlayn va oflayn bo'lishi mumkin.

Xakatonning asosiy maqsadi eng yaxshilarning eng yaxshisini, turli g'oyalar va konsepsiyalarni ishlab chiqarish, prototiplarni yaratish va muammolarni ahamiyatli usullarda hal qila oladigan odamlar jamoasini topishdan iborat. Ishtirokchilar uchun bu qimmatli ko'nikmalar va sovrinlarga ega bo'lish, shuningdek, o'z startapini yoki yangi ish beruvchini yaratish uchun kuchli hamkasblarni topish imkoniyati hisoblanadi.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra biz pedagogik OTMda kompetentlikka asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillarini aniqlashtirdik. Ular quyidagilardir:

- mashg'ulot jarayonining insonparvarlik tamoyili

- ilmiylik tamoyili
- nazariya va amaliyotning birligi tamoyili
- uzluksizlik, izchillik va tadrijiylik tamoyili
- integrallashganlik tamoyili
- moslashuvchanlik tamoyili.

Tadqiqotimizning maqsadlaridan biri kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishning samarali mexanizmini ishlab chiqishdir. Amalga oshirish vositalari sifatida tizimlilikning ikki darajasidan foydalanish taklif etiladi: super-mavzu darajasi (SMD) va mavzu darajasi (MD).

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarni tayyorlash tizimidagi Dasturlash tili fani o‘qitilishining haqiqiy holatini tahlil qilish natijalari bizga fanni kasbiy kompetentli mutaxassisni tayyorlashga qaratilgan mustaqil tizim sifatida ko‘rib chiqish, shuningdek, bir qator kamchiliklarni aniqlash imkonini berdi. Bular quyidagilar:

1) nazariy mashg‘ulotlar davomida talabalar tomonidan egallangan o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va ta‘lim tizimining real holati o‘rtasidagi mavjud nomuvofiqlik;

2) o‘quv yurtlari o‘qituvchilar jamoasiga talabalar qo‘shilishining qiyinligi;

3) talabalar nazariy tayyorgarligi va ularning amaliy faoliyat bilan bog‘liqligining yetarli darajada emasligi;

Bu esa, “dasturlashning asosiy yo‘nalishiga biz informatika o‘qituvchisining dasturlash sohasidagi kompetensiyalarini shakllantirish vazifasini qo‘ydik. Keling, kompyuter fanlari o‘qituvchisi va dasturiy ta‘minot muhandisining ushbu kompetensiyasi o‘rtasidagi farqni ta‘kidlaylik. Ikkinchisi fanga oid kompetensiyalarning ancha ko‘p soniga ega va ularga qo‘yiladigan talablar yanada qattiqroq. Bizning talqinimizda o‘qituvchining dasturlash sohasidagi kompetensiyasi quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak: algoritmik, ma‘lumotlar bazasiga yo‘naltirilgan, shuningdek, tarmoq, vizual va makro dasturlash sohasidagi kompetensiyalar, dasturlash paradigmalarning har birida kamida bitta tilni bilish. (protsessual, mantiqiy, ob‘yektga yo‘naltirilgan), dasturlashni o‘rgatish metodologiyasi sohasidagi kompetensiyani shakllantirish va ba‘zi jihatlarni optimallashtirish (avtomatlashtirish) uchun hech bo‘lmaganda bitta tilda o‘z loyiha faoliyatini amalga oshirish uchun dasturlash qobiliyati, ta‘lim jarayonining, shuningdek, kelajakdagi kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida “loyihalar usuli” ni tashkil etish qobiliyati”.

“Matematika va informatika” ta‘lim yo‘nalishi talabalarining dasturlash tillari fanini o‘qitish orqali kasbiy kompetensiyalari komponentlarini shakllantirish modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).

Modelning integrativligi uning barcha komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta‘sirida, kasbiy kompetensiyani shakllantirishning maqsadlari, mazmuni, tashkiliy shakllari va usullarini birlashtirishda namoyon bo‘ladi. Tanlangan yondashuvlar va tamoyillarga muvofiq, kasbiy kompetensiyani shakllantirish modeli asosida biz maqsadli, metodologik, mazmunli, texnologik va baholovchi komponentlarni o‘z ichiga olgan modelni tushunamiz.

Ijtimoiy buyurtma: kichik mutaxassislik kasbi bo'yicha malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan umumiy o'rta ta'limning sifatini oshirish

Maqsad: ijtimoiy hamkorlarning yuqori malakali mutaxassislarga ijobiy muhit yaratish, kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish

Vazifalar:

1. Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
2. Kichik mutaxassislarni tayyorlaydigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun raqobat muhitini yaratish.
3. Ish beruvchilarning talablariga muvofiq kadrlar tayyorlash shakllari va metodlarini takomillashtirish orqali mehnat va ta'lim resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish.
4. Maktablarda o'quvchilar uchun kasbiy ta'lim olish qulayligini ta'minlash.
5. Bitiruvchilarni ishga joylashtirishga ko'maklashish va bitiruvchilarni mehnat bozoriga moslashtirish.
6. Bitiruvchilarning to'liq ma'lumotlar bazasini ish beruvchilarga taqdim etish va o'zaro hamkorlik qilish.
7. Klasteri tarkibiga kiruvchi ta'lim muassasalarning o'zlariga birlashtirilgan mulkdan oqilona foydalanishlari uchun o'zaro hamkorlik qilishga qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratish

Omilar:

- klaster faoliyatida resurslar birlashtiriladi;
- ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga moddiy-texnik baza yo'naltiriladi (o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilarga alohida muassasa mavjud bo'lmagan org-texnikalar, konsultatsiyalar, maslahat yordami axborot-ta'lim resurslari va boshqalardan foydalanish imkonini)

Funksiyalar:

- *muvoziqlashtiruvchi;*
- *sinergik;*
- *korporativ;*
- *prognostik;*
- *yetakchi;*
- *birlashtiruvchi;*
- *axborot;*
- *qayta tashkil etish.*

Tamoyillar:

- *oshkorlik tamoyili;*
- *tizimlilik tamoyili;*
- *qulaylik tamoyili;*
- *moslashuvchanlik tamoyili;*
- *madaniy muvofiqlik tamoyili;*
- *hamkorlik tamoyili.*

Klasterlarning ishlashi shart-sharoitlari:

- har bir ishtirokchining o'z faoliyati natijalari uchun javobgarligini rivojlantirish;
- berilgan yo'nalishlar bo'yicha ta'lim klasterining uzluksiz rivojlanishi sifatida dinamikligi;
- mustahkam aloqalarga asoslangan uzoq muddatli hamkorlik, strategik sheriklik hamda resurslar va malumotlarning muntazam almashinuvi;
- klasterning integratsion tabiatiga asoslangan murakkabligi.

Ustuvor yo'nalishlar:

- iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash;
- maktabgacha tayyorgarlik olib borish;
- tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, pedagoglarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash;
- ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik va kasbiy tayyorgarlikdan oldingi tayyorgarlik;
